HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

TILSHUNOSLIKDA ZOOKOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING O‘RGANILISHI

Madina Kamalova
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 37-sonli maktab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21618732

Kalit so‘zlar: zoonim komponentli frazeologizmlar, dunyo tilshunosligi, etnolingvistika, kognitiv til bilimi.

Zoofrazemalar (yoki zoonim komponentli frazeologizmlar) dunyo tilshunosligida frazeologiya, semantika, etnolingvistika va kognitiv tilshunoslik yo’nalishlarida keng o’rganilgan. Turli xalqlarning tili va madaniyatida hayvon nomlari ishtirokidagi iboralar milliy dunyoqarash, urf-odat va madaniy qadriyatlarni aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Zoonim komponentli frazeologizmlar tarkibida hayvon nomlari qatnashadigan turg’un iboralardir. Ular insonning xarakteri, xulq-atvori, hissiy holati va jamiyatdagi munosabatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Dunyo tilshunosligida bunday frazeologizmlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o’rganila boshlagan.

Rus tilshunosligida frazeologiya nazariyasining rivojlanishida V. V. Vinogradov, A. V. Kunin, N. M. Shanskiy kabi olimlar katta hissa qo’shgan. Ular frazeologik birliklarning tuzilishi, semantikasi va tasnifini ishlab chiqqanlar. A. V. Kunin ingliz tilidagi frazeologik birliklarni, jumladan, zoonim komponentli iboralarni lingvistik va madaniy jihatdan tahlil qilgan.

G’arb tilshunosligida esa frazeologik birliklar kognitiv va madaniy nuqtai nazardan o’rganilgan. George Lakoff va Mark Johnson konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, hayvon obrazlari inson tafakkuridagi konseptlarni ifodalashini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlariga ko’ra, ko’plab zoonim frazeologizmlar metaforik tafakkur mahsuli hisoblanadi.

Nemis, fransuz, ispan va xitoy tilshunosligida ham zoonim frazeologizmlar qiyosiy va lingvomadaniy yo’nalishda tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda hayvon obrazlarining turli madaniyatlardagi ramziy ma’nolari solishtirilib, ayrim hayvonlar turli xalqlarda o’xshash, ba’zilarida esa mutlaqo farqli semantik yuklama kasb etishi aniqlangan. Masalan, tulki ko’plab tillarda ayyorlik timsoli bo’lsa, it obrazi ayrim madaniyatlarda sadoqat, boshqalarida esa salbiy bahoni ifodalaydi.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham zoonim komponentli frazeologizmlar frazeologiya va lingvomadaniyat nuqtai nazaridan o’rganilgan. Tadqiqotlarda hayvon nomlari ishtirokidagi iboralarning semantik xususiyatlari, milliy-madaniy mazmuni va boshqa tillardagi muqobillari tahlil qilingan. Qiyosiy tadqiqotlar qoraqalpoq, o’zbek, ingliz va rus tillaridagi zoonim frazeologizmlarning umumiy hamda milliy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Frazeologiyani ilmiy tarzda o‘rganishning asosini Charles Bally solgan. Keyinchalik bu yo‘nalish Viktor Vinogradov, Nikolay Shanskiy kabi tilshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ular frazeologizmlarning semantik, grammatik va stilistik xususiyatlarini maxsus tadqiq qildilar.

Zookomponentli frazeologizmlarni o‘rganish bir necha yo‘nalishda olib boriladi:

Semantik yo‘nalish - frazeologizmning ko‘chma ma’nosi, obrazlilik darajasi va semantik tuzilishi tahlil qilinadi.

Strukturaviy yo‘nalish - frazeologizmlarning tarkibi, grammatik modeli va sintaktik tuzilishi o‘rganiladi.

Lingvomadaniy yo‘nalish - hayvon obrazlarining xalqning madaniyati, urf-odati va dunyoqarashi bilan bog‘liqligi aniqlanadi.

Qiyosiy yo‘nalish - turli tillardagi zookomponentli frazeologizmlar solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli belgilari belgilanadi.

Kognitiv yo‘nalish - odamning fikrlash tizimida hayvon obrazlarining qanday konsept sifatida shakllanganini o‘rganadi.

Zookomponentli frazeologizmlar ko‘pincha hayvonlarning ma’lum xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, tulki - ayyorlikni, bo‘ri - botirlik yoki qattiqqo‘llikni, qo‘y - mo‘minlikni, eshak - qaysarlik yoki fahm-farosati sustlikni, arslon - kuch va jasoratni ifodalab keladi. Bunday obrazlar xalqning ko‘p asrlik kuzatuvlari va turmush tajribasi asosida shakllangan.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham frazeologiyani, shu jumladan zookomponentli frazeologizmlarni o‘rganishga maxsus ilmiy ishlar olib borilmagan. Faxat, kichik hajmdagi maqolalarda uchratish mumkin. Bu tadqiqotlarda ularning semantikasi, tuzilishi, etnomadaniy mazmuni va badiiy adabiyotda qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Qoraqalpoq tilida zoonimlarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish 2000-yillar boshidan boshlandi. Olima E.Iskenderova “Qoraqalpoq tilidagi zoonimlarning lingvomadaniy tahlili” mavzusida bu masalani alohida o‘rgandi. Ilmiy ishda turkiy xalqlarda, shu jumladan, qoraqalpoq xalqida ham to‘rt turdagi mol - tuya, ot (yilqi), qoramol, mayda mol - qo‘y-jonliq (echki) kabi uy hayvonlarining nomlari maqol-matallarning til qurilishida mohirlik bilan qo‘llaniladi. Ular hayotning turli tomonlarini badiiy aks ettirishda, fikr-mulohazani boshqa narsa, predmet, hodisa, voqea, belgi yoki harakat bilan qiyoslab ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Tuya atamasi bilan kelgan frazeologizmlar mazmuni, badiiyligi jihatidan farqlanadi. Ko‘chmanchi hayotda tuya ulov sifatida ham, suti (chuvati), go‘shti, juni foydali bo‘lgani uchun alohida qadrlangan. Shunga ko‘ra qoraqalpoq tilidagi til birliklarida tuya o‘ng bog‘ga ega bo‘lib, xalqning etnomadaniyatini ta’rifini ko‘rsatadi. Shuning uchun tuya konsepti qoraqalpoq lingvokulturologiyasida xalqning tarixi, xo‘jaligi va ma’naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda qaraladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joiz ki, hayvonlarning maqol-matallarda, iboralarda qo‘llanilishidan o‘sah xalqning ongini, madaniyati-yu, kognetiv o‘ylashini bilib olosh mumkin.

Adabiyotlar

1. Dobrovolskij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. Amsterdam: Elsevier, 2005.
2. Iskenderova E.K. Qoraqalpoq tilidagi zoonimlarning lingvomadaniy tahlili. Filol. fanl. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoreferati. – Nukus: 2023;
3. Kunin A. V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow, 1984.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.